



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-8-38-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatovning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son Qarori ijrosi yuzasidan tumanda I chorak yakuni bilan amalga oshirilgan ishlar hamda yangi ish o‘rnlari yaratish, aholi bandligini ta’minalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi hisoboti haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son qarori ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilayotgan ishlar oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni maqsadida, hamda yuqorida bayon etilganlarga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VII chaqiriq, sakkizinch sessiyasi

QAROR QILDI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-son qarori ijrosi 2025 yil I choragi davomida tumanda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimi birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokiminining o‘rinbosarlari (N.Jo‘lmatov, O.Shirinov, Sh.Isaqulov, B.Sulaymanov, M.Rasulov, S.Djumayeva)ga:

-kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, tijorat banklari hamda mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilari bilan birgalikda;

-aholiga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish;

-kreditlarni so‘ndirish muddatlari va tasdiqlangan jadvallarga qat’iy rioya qilishni, kreditlar bo‘yicha qarzdorlarning muddati o‘tgan qarzdorliklar hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha barcha zarur choralar ko‘rish;

-mahalladagi xonadonlarni yer uchastkalaridan foydalanish darajasi, oilalarning daromad manbalari, daromadli mehnat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqishlarini xonadonbay o‘rganish va kreditga bo‘lgan ehtiyojlarini yo‘nalishlar bo‘yicha shakllantirish;

-mahallalarda mavjud tadbirkorlarning muammolarini yechishga hamda iqtisodiy o'sishning drayver sohalarida yangi tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishga ko'mak berish;

-tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarni biznes asoslariga o'qitish tizimini tashkil etish, ularni tadbirkorlikka yo'naltirish hamda biznes loyihalarini tayyorlashda ko'mak berish va uni amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoring qilib borish;

-oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini oshirish choralarini ko'rish;

-bank kreditlari hisobiga ishga tushirilgan va bugungi kunda past quvvatlarda ishlayotgan korxonalarining sabablarni aniqlash, ularning to'liq quvvatda ishlashiga amaliy yordam ko'rsatish choralarini ko'rish vazifasi topshirilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish "Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev), tuman hokimi birinchi o'rinnbosari N.Jo'lmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH